

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas’ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASININING
PROGRESSIV YO`NALISHLARI VA TARAQQIYOTDAGI AHAMIYATI

JDPI katta o`qituvchisi
Musinov Najmiddin Faxriddinovich
“Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari
va huquq ta`limi” yo`nalishi
talabasi **K. Bodiqulova.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada: globallashuv sharoitida, dunyoning mafkuraviy manzarasi milliy g`oya, mafkura rivoji va ahamiyati qonun oldidagi huquqiy tenglik va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish; "Milliy g`oya" fanini nazariy jihatdan boyitish, amaliy jihatdan esa tezkor harakat qilish ishlarini yo`lga qo`yishning usullari nazariy tadqiq etilgan.

Tayanch so`zlar. Dunyoning mafkuraviy manzarasi, Globallashuv, g`oya mafkuralarning, progressiv yo`nalishlari, mafkura, qonunning ustunligi, xavfsizlik, demokratiya, axborot, qadriyat, fuqarolik jamiyat, huquqiy davlat, mulkchilik, ma`naviy xuruj.

Bugungi kunda progressiv yo`nalishda faoliyat olib borayotgan mafkuralar insoniyatni har xil samoviy va zamin ofatlaridan, urush va boshqa majoralardan xalos etib tinch-totuv, o`zaro hamjihatlikda yashash, hududlar bo`linmasligi, chegaralar daxlsizligini ta`minlash, moddiy va ma`naviy boyliklardan o`zaro foydali hamkorlik asosida foydalanishga harakat qilayotgan bunyodkor g`oyalalar sifatida ish yuritmoqda. Bunga, o`zbek xalqining milliy mafkurasi yaqqol misol bo`ladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik, ozodlik, qonun ustuvorligi va inson erkinliklari kabi g`oya va qadriyatlar umuminsoniy ahamiyatga ega. Ayni paytda, yaxshilik,adolat, millatlarning teng huquqliligi, vijdon erkinligi, tabiatni asrash va shu kabilar umuminsoniy g`oyalarga misol bo`la oladi. Jamiyat rivojida ular xilma-xil tarzda, turli-tuman shakllarda namoyon bo`lib, inson hayotining ma`naviy mezoni bo`lib xizmat qiladi.

Umuminsoniy g`oyalarning har bir xalq mafkurasida ustuvor bo`lishi shu xalqning jahon hamjamiyatiga teng huquqli a`zo sifatida barcha bilan tinchlik va hamkorlik aloqalarini o`rnatishi, erkin va farovon hayot barpo etishining muhim shartidir. Qayd etish lozimki, mamlakatimizdagi milliy mafkura umuminsoniy g`oyalarga suyanadi, undan oziq oladi¹. XIX asrning ikkinchi yarmidan jahondagi

¹ Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug`at) –T.: 2002. –B. 149.

Тарих ва Жамият илмий журнали

g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarda demokratik tamoyillarning shakllanib, rivojlanishi yuz bera boshladi. Demokratlashtirish, erkinlashtirish, iqtisodiyotning ochiqligi, havfsizlik muammolariga munosabatlarning bir-biriga yaqinlashuvi bugun jahondagi ko‘pchilik davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarini belgilab bermoqda. Bundan ikki yuz yillar muqaddam jahoning hamma davlatlari avtoritar davlatlar edi. XIX asrning oxirida jahonda 13 tagina demokratik davlat bor edi. XX asrning birinchi yarmida ularning soni ikki marta ortdi, 1992 yilga kelganda esa jahondagi 183 davlatning 91 tasi demokratik davlat bo‘ldi, yana 35 tasi esa avtoritarizmdan demokratiyaga o‘tish davrida turardi. SHu asosda umumsayyora ko‘lamida axloqiy-ma’naviy masalalar va qiziqishning kuchayishi ravshanroq ayon bo‘lmoqda².

Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. SHu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universil texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar ham bormoqda. Butun Er yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shak-shubha yo‘q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o‘zgartirish, muayyan xududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo‘lgani ma’lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgani ma’lum. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko‘proq bir davlat ichda, ikki davlat o‘rtasida yoki nari borganda bir mintaqada doirasida bo‘lishi mumkin edi. To‘g‘ri, aytaylik, A.Makedonskiy va CHingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki o‘rta asrlardan boshlab evropalik istilochilarining boshqa qit’alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko‘لامи jihatidan ajralib turadi. XX asrda ro‘y bergen ikkita jahon urushida o‘nlab davlatlar, bir necha qit’a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak bunday xulosa muayyan darajada o‘rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish uyoqda tursin, balki butun Er sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo‘q qilib tashlashga etadi.

SHu bilan birga hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’siri doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinism, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallah uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda. Bugungi kunda dunyoning

² «Jahon adabiyoti», 2003, noyabr. 116-bet.

Тарих ва Жамият илмий журнали

mafkuraviy manzarasi doirasida sodir bo‘layotgan g‘oyaviy – mafkuraviy jarayonlarning Progressiv yo‘nalishiga quydagilarni kiritish mumkin

Bularga:

- tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot;
- millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik;
- inson erkinligi va shaxs kamoloti;
 - umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi kabilarni yaratishga qaratilgan mafkuraviy jarayonlarni kiritish mumkin.

Mafkuraviy tahdidlarga kurashning eng yaxshi usullaridan biri o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini olib borishdir.

Profilaktika ham tibbiyot atamasi bo‘lib, kasallikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ifodalaydi. Mafkuraviy profilaktika esa ongdagi mafkuraviy bo‘shlikni to‘ldirishga qaratilgan g‘oyaviy- tarbiyaviy, ma’naviy-mafkuraviy ishlar majmuasi, yaxlit g‘oyaviy tizimdir.

Mafkuraviy profilaktika - ijtimoiy institutlar tomondan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy mafkuraviy ishlar majmui bo‘lib, u butun g‘oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g‘oyaviy bo‘shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biron-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli ta’siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday g‘oyaviy ta’sirning xilma-xil usul yo‘llaridan foydalaniлади, turli vositalar qo‘llaniladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur’atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora - tadbirlar qo‘llash lozim bo‘lsa, ikkinchi holda doimiy va sobit qadamlik bilan ish olib borish ko‘proq natija beradi.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o‘rnii katta. Zero, u mohiyatan, yot g‘oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora- tadbirlarga tayanadi.

Immunitet - tibbiyot atamasi bo‘lib, organizmning turli kasallikkardan o‘zini himoya qila olish qobiliyatini anglatadi. **Mafkuraviy immunitet** - ong va tafakkurning shaxsni turli buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qila olish qibiliyatidir.

Kishi jismonan qancha baquvvat bo‘lsa, uning organizmi turli kasallikkarni ular avj olmay tez bartaraf eta oladi. SHuningdek, inson onggi qancha sog‘lom bo‘lsa, u turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga berilmaydi. Organizm mikroblarni engsa, ong yovuz fikrlar, tashviqotlarni bartaraf etadi. Mafkuraviy immunitetning asosiy quroli ob’ektiv bilimlar va ma’naviy qadriyatlardir.

Xo‘sh, mafkuraviy immunitet tizimi o‘z ichiga nimalarni oladi? Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu **bilimdir**. Ammo, bilimlar

Тарих ва Жамият илмий журнали

ko‘p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdarlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. SHunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob’ektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatini boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan **qadriyatlar** tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob’ektiv va chuqr bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatli tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.